




TASHKENT MEDICAL ACADEMY

100
TMA
ANNIVERSARY



Journal of Educational and Scientific Medicine



Issue 5 | 2025



OAK.UZ

Google Scholar

Science Education Commission of the Cabinet
Ministry of the Republic of Uzbekistan

ISSN: 2181-3175

ROLE OF LIVER AND BILIARY TRACT DISEASES IN THE DEVELOPMENT OF ABNORMAL UTERINE BLEEDING DUE TO ENDOMETRIAL POLYP

D.R. Sadikova, D.H. Irnazarova., D.S. Khujaeva
Tashkent Medical Academy, Tashkent, Uzbekistan
Email: khujaevadildora@gmail.com

Abstract. Endometrial polyps (EPs) are a common gynecological condition occurring across all age groups of women. In 2024–2025, 45 women who visited the Multidisciplinary Clinic of the Tashkent Medical Academy were examined and divided into three groups: those with biliary pathology, without biliary pathology, and a control group. The study was conducted using a prospective approach. All participants underwent clinical-anamnestic evaluation, instrumental diagnostics, diagnostic treatment procedures, morphological assessment, and statistical analysis. According to the results of our study, it was found that in women with abnormal uterine bleeding of polyp origin (AUB-P) and coexisting biliary pathology, clinical symptoms of the disease were 1.7–2 times more pronounced compared to women without biliary pathology.

Keywords: Endometrial polyp, abnormal uterine bleeding (AUB), hepatobiliary disorders. **Endometriy polipi sababli bachadondan anomal qon ketish rivojlanishida jigar- o't yo'llari kasalliklarining roli.**

D.R. Sadikova, D.H. Irnazarova, D.S. Xo'jayeva
Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Endometriy polip (EP)lari ginekologik kasalliklar orasida keng tarqalgan bo'lib, barcha yoshdagi ayollar orasida uchraydi. Toshkent tibbiyot akademiyasi Ko'p tarmoqli klinikasiga 2024-2025- yillarda murojaat qilgan 45 nafar ayollarni 3 guruhga : biliar patologiyali , biliar patologiyasiz va nazorat guruhlariga ajratdik va prospektiv usul yordamida tibbiy ko'rikdan o'tkazdik . Barcha ayollar klinik-anamnestic usul, instrumental usul, diagnostik davolash usuli, morfologik usul, statistik usullar orqali tekshirildi. Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra biliar patologiya mavjud polip etiologiyali bachadondan anomal qon ketish (BAQK-P) mavjud ayollarda kasallik klinik belgilari biliar patologiyasiz ayollarga nisbatan 1,7-2 barobar yaqqolroq namoyon bo'lishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Endometriy polipi, bachadondan anomal qon ketishi (BAQK), jigar o't yo'llari kasalliklari.

Роль заболеваний печени и желчевыводящих путей в развитии аномальных маточных кровотечений при эндометриальном полипе.

Д.Р. Садыкова, Д.Х. Ирнazarova., Д.С. Хужаева
Ташкентская медицинская академия, Ташкент, Узбекистан

Аннотация. Эндометриальные полипы (ЭП) являются широко распространённой гинекологической патологией и встречаются у женщин всех возрастных групп. В Клинику многопрофильной больницы Ташкентской медицинской академии в 2024–2025 годах обратились 45 женщин, которых мы разделили на три группы: с билиарной патологией, без билиарной патологии и контрольную группу. Обследование проводилось проспективным методом. Всем пациенткам были проведены клинико-анамнестическое исследование, инструментальная диагностика, диагностическое лечение, морфологическое исследование и статистический анализ. По результатам нашего исследования установлено, что у женщин с аномальным маточным кровотечением полипозной этиологии и сопутствующей билиарной патологией клинические проявления заболевания выражены в 1,7–2 раза ярче по сравнению с женщинами без билиарной патологии.

Ключевые слова: эндометриальный полип, аномальные маточные кровотечения (АМК), заболевания печени и желчевыводящих путей.

Endometriy polipi - bu endometriy qavatidan o'suvchi, bezlar, stroma va qon tomirlaridan tashkil topgan xavfsiz o'sma bo'lib, taxminan 5 mm dan tortib butun bachadon bo'shlig'ini to'ldiradigan kattalikda bo'lishi mumkin.[3,10].

Endometriy poliplar ginekologik poliplar orasida eng keng tarqalgan turi bo'lib, ularning tarqalishi 7,8-50% ni ko'rsatadi. Endometriy poliplari qaytalanishga moyil, ularning qaytalanish darajasi 2,5% - 43,6% ni tashkil etadi. EP ning asosiy belgilari BAQK, bepustlik, qorindagi og'riq, qindagi ajralmalardir. [7, 9].

Endometriy polipi barcha yosh guruhlarida uchrasa-da, 40-49 yosh oralig'ida eng ko'p kuzatiladi. Endometriy poliplari premenopauza yoshidagi ayollarda 40% hollarda BAQK ga sabab bo'ladi. So'nggi tadqiqotlar endometriy polipi fonida BAQK rivojlanishi va ba'zi xavf omillari o'rtasida bog'liqlikni aniqladi [1, 5].

EP rivojlanishida asosiy sabablardan biri mutloq va nisbiy giperestrogenemiyadir [4, 8].

Gepatobiliar tizim patologiyalari esterogenning jigarda utilizatsiyasi sekinlashishi tufayli yuzaga keluvchi surunkali giperestrogenemiya rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. [6].

Bundan tashqari endometriy polipi bo'lgan ayollarda bepustlik foizi va malignizatsiya xavfi yuqoridir [2].

Tadqiqot maqsadi: Endometriy polipi etiologiyali bachadondan anomal qon ketishi (BAQK-P) mavjud perimenopauzal yoshdagi ayollarda diagnostik va davolash chora-tadbirlarini takomillashtirish.

Tekshiruv materiallari va usullari. Toshkent tibbiyot akademiyasi Ko'p tarmoqli klinikasiga 2024-2025- yillarda murojaat qilgan 45 nafar ayol prospektiv usulda tekshirildi. Mazkur ayollar o'z navbatida 3 guruhga ajratildi:


-biliar patologiya mavjud BAQK- P li ayollar (n=15);

-biliar patologiyasiz BAQK- P li ayollar (n=15);

-amaliy sog'lom ayollar (n=15)

Barcha ayollar klinik-anamnestik usul, instrumental usul, diagnostik davolash usuli, morfologik usul, statistik usullar orqali tekshirildi.


Olingan natijalar. Tadqiqotimiz perimenopauza yoshli ayollar orasida olib borildi. Prospektiv tahlil asosida klinik-anamnestik tekshiruvda hayz vaqtida ishlatilgan tamponlar soniga e'tibor berildi. BAQK-P mavjud bemorlarning biliar patologiya mavjud guruhida biliar patologiyasiz guruhga nisbatan qon ketish hajmi kuniga 100 ml dan ortiq bo'lgan ayollar soni 1,4 barobarga; kunlik qon ketish hajmi 80-100 ml bo'lgan ayollar soni esa 2 barobarga ko'payganligi aniqlandi (1-rasm).



1-Rasm. Hayz vaqtida ishlatiladigan prokladkalar miqdori


Hayz siklining davom etish kuni 10 kundan ortiq davom etgan bemorlar soni biliar patologiyali guruhda biliar patologiyasiz guruhga nisbatan 1,6 barobarga ko'pligi aniqlandi (2-rasm).

Sotsiologik usul asosida ayollar maxsus modifitsirlangan so'rovnoma usuli bilan tekshirildi. Ushbu so'rovnoma Xalqaro klinik bayonnoma (ROAG 2023, RCOG 2016, NFOG 2015) asosida tuzilgan bo'lib, umumiy 38 savoldan tashkil topgan, har bir javob uchun 1 balldan qo'shib baholanadi. Ballar yig'indisiga ko'ra ayollar quyidagi xavf guruxlariga bo'linadi: kasallikning rivojlanishi uchun yuqori (>25 ball), o'rta (13-24 ball) va past (<12) xavf guruhlari.




2-Rasm. Hayz siklining davom etish uzunligi.

Tadqiqot davomida quyidagi natijalar olindi: biliar patologiya mavjud BAQK-P li ayollarda yuqori xavf guruhi 33,3 % (n=5), oʻrta xavf guruhi 60% (n=9), past xavf guruhi 6,67% (n=1) ni tashkil etdi.




3-Rasm. Soʻrovnoma asosida aniqlangan xavf guruhlari.

Biliar patologiyasiz BAQK-P li ayollar tekshirilganda 20% (n=3) ayol yuqori xavf guruhi, 66,7% (n=10) oʻrta xavf guruhi, 13,3 % (n=2) ayol past xavf guruhiga mansubligi aniqlandi (3-rasm).




4-Rasm. Transvaginal 3D ultratovush tekshiruvi

Instrumental usul (2D/3D UTT) asosida polip hajmi biliar patologiyali BAQK-P mavjud ayollarda, biliar patologiyasiz BAQK-P li ayollarga qaraganda deyarli 2 barobarga katta ekanligi aniqlanadi (4-5-rasmlar).




5-Rasm. Instrumental tekshiruv asosida polip hajmi.

Prospektiv guruhdagi biliar patologiyasi mavjud BAQK-P li ayollarda biliar patologiya turlari tekshirilganda, 20 % ni ($n=3$) kalkulyoz xolesistit, 66,7 % ini ($n=10$) surunkali toshsiz xolesistit, 33,3 % ini esa xolestaz ($n=5$) tashkil etishi qayd etildi (6- rasm).



6- Rasm. Biliar patologiyali BAQK-P mavjud guruhda patologiya turlarga ajratilishi.

Davolash-diagnostik usul sifatida esa Gisterorezektoskopiya dan foydalanildi (7-8-rasm).



7-Rasm. Bemor U. (Kasallik varaqasi №556). Bachadon tanasi yon devorida polip.

8-Rasm. Bemor F. (Kasallik varaqasi №538). Bachadon tanasi orqa devorida polip

Xulosa: Shunday qilib, jigar o't yo'llari kasalliklarining endometriy polipi rivojlanishi bilan bog'liqligini aniqlash amaliy jihatdan muhim. Xulosa sifatida aytish mumkinki, biliar patologiya mavjud BAQK-P li ayollarda yuqori xavf guruhi biliar patologiyasiz guruhga nisbatan 1,67 barobarga yuqoridir. Bu o'rinda tadqiqotimiz natijalariga ko'ra biliar patologiya mavjud BAQK-P li ayollarda kasallik klinik belgilari 1,7-2 barobar yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Воропаева Е.Е., Рогозина А.А., Казачкова Э.А. и соав. Обоснование дифференцированного подхода к тактике ведения пациенток с эндометриальными полипами различных морфологических типов //Уральский медицинский журнал. – 2019. – № 10(178). – С. 67-70.
2. Савельева Г.М. и соав. Патогенез полипов эндометрия у пациенток в пре и постменопаузе. Экспрессия генов рецепторов эстрадиола и прогестерона в их ткани //Акушерство и гинекология. – 2015. – №. 3. – С. 33-39.
3. Ирнарзорова Д.Х., Юлдашева Д.Ю., Нажмутдинова Д.К., Каюмова Д.Т., Атаходжаева Ф.А., Ахмедова Г.А., Садикова Д.Р. Взаимосвязь повышенного индекса массы тела с обеспеченностью витамином D у женщин с миомой матки. Спортивная медицина. – 2020. – №4. – С.84-88.
4. Кобаидзе Е.Г., Клиническая характеристика пациенток с эндометриальными полипами в постменопаузе, “Акушерство, гинекология, репродукция”, 2022, № 3, 255-265
5. Оразов М. Р. “Факторы риска развития полипов эндометрия у женщин репродуктивного возраста”, Акушерство и Гинекология 3.1.4.,2022.
6. Сибирская Е.В. и соав. Современная классификация и методы коррекции аномальных маточных кровотечений у женщин позднего репродуктивного возраста //Трудный пациент. – 2021. – Т. 19. – №. 4. – С. 18-24.
7. Jiejie Nian and et al, Expression levels of ADAMTS 5, 9, and 12 in endometrial polyps and their predictive value for the diagnosis and recurrence of endometrial polyps, European Journal of Obstetrics and Gynecology 295 (2024) 86–91.
8. Mak K.S., Huang Y.T., Su Y.Y. et al. Clinical outcomes in women with endometrial polyps underwent conservative management. Taiwan J Obstet Gynecol. 2023 Jul; 62(4):553-558.
9. Min Zhang, Chong Liu et all. “Urinary phthalate metabolites and the risk of endometrial polyp: A pilot study from the TREE cohort”. Environmental pollution 317(2023)120711].
10. Njume Peter Nijkang and et al, “Endometrial polyps: Pathogenesis, sequelae and treatment”, 2019.